

IJODKORLIK VA IJODIY MUHIT DARS JARAYONINING ASOSI

Zuhraxon Yusupjanova

*Qo'rg'ontepa tumanidagi 44 – umumiy o'rta ta'lim maktabining
boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Avvalo, ijodkor o'qituvchi o'quvchilarning ijodiy faoliyatini bilim sifatini oshirishga yo'naltiradi. Barcha bolalarning dars mashg'ulotlariga to'liq qatnashish g'amini yeyish, ulgurmayotgan o'quvchilarga yordamlashish, o'quvchilarning o'quv qurollaridan samarali foydalanishiga erishish, ularni avaylab-asrash, ta'mirlab tuzatish, maktab kutubxonasidan doimiy foydalanishga o'rgatish, turli mavzularda ertaliklar va kechalar o'tkazish, devoriy gazetalar chiqarish, maktab radio uzeli faoliyatini jonlantirish va unga maktab hayotidan materallar tayyorlash, badiiy asarlardan sahna ko'rinishlari tayyorlash, turli sport o'yinlari, ko'rik-tanlovlar, musobaqalar o'tkazish, turli kitob, jurnal, gazetalarni targ'ib qilish, taniqli shoir va yozuvchilar, rassom va haykaltaroshlar bilan ijodiy uchrashuvlar, «Kitobsevarlar», «Yosh qalamkashlar», «Ifodali o'qish» ko'rik-tanlovlarini o'tkazish va unda faol ishtirok etishga o'quvchilarni yo'naltirish har bir pedagogning muhim ijodkorlik vazifasi sanaladi.

O'quv yili davomida o'qituvchi ularning faoliyatiga ijodiy yondashishga undash, o'quv-tarbiya jarayonini takomillashtirish, pedagoglar orasida tashabbuskorlikni oshirish, ularning iqtidorlarini namoyish etish, ijodiy muhimi shakllantirishga yo'naltiriladi. Pedagoglarning diqqat-e'tibori tarbiyalanuvchi o'quvchilar qobiliyati va ist'edodini rivojlantirish, aniq maqsadni ko'zlagan holda ular bilan ishlash tizimini shakllantirishga qaratiladi.

Ushbu yo'nalishlarda oila, mahalla va jamoatchilik hamkorligini kuchaytirish, jamoatchilik e'tiborini o'quv- tarbiya jarayoniga, o'quvchi shaxsini rivojlantirishga jalb etish muhim vazifa hisoblanadi.

Shu o'rinda haqli bir savol tug'iladi. Ijodkorlik va ijodiy muhit nima? **Ijodkorlik-**kishining o'z qiziqishi, ijodiy namunalariga, yangiliklar kiritishga keng imkoniyatlar ochadigan mashg'ulotlar bilan shug'ullanishga intilishlarida o'z aksini topadi.

Ijodiy muhit - ijodkor shaxsga yo'naltirgan bo'lib, jamoada sog'lom muhitni yaratish orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirish o'zaro hamkorlik asosida muammolar echimini topish, aniq maqsadli natijalarni kafolatlash demakdir.

Bundan ko'rinadiki, pedagog o'z mehnatini ijodiy mehnatga aylantirganda, pedagoglik ishining nazariyasini ham, amaliyotini ham astoydil o'rganib, boshqalarning tajribasidan foydalanib, o'zi ham tashabbuskorlik, ixtirochilik bilan ishlab, o'quvchilarni qiziqtirishi, ularning ishini faollashtirish, o'rganilayotgan materallarni hayot bilan

bog'lagandagina o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalashda chinakam muvaffaqiyatli natijalarga erishadi.

Yangi usullar va vositalarni izlab topish, o'z mehnatiga sitqidildan yondashish, darslarga har tomonlama puxta tayyorgarlik ko'rish, texnika vositalari va ko'rgazmali qurollardan o'rinli va samarali foydalanish, g'oyat ruhlanib ishlash, zavqlanib dars berish har bir o'qituvchiga xos bo'lmog'i darkor. O'qitalayotgan materiallarni bolalarga har kuni, har yili bir xil tarzda zerikarli qilib takrorlayotgan yoki o'zining faoliyati bolalarni qiziqirtirmayotganini payqamay, ularga nuqul nasihat qilish bilan shug'ullanayotgan, o'qituvchilikni oddiy kasbga aylantirib yuborgan o'qituvchilardan ijodkor pedagoglar o'zlarining yaxshi sifatleri bilan farq qiladilar.

Ijodkor pedagog o'z ishida qolip bo'lishiga yo'l qo'ymaydi, turg'unlikka qat'iy qarshi turadi, ishiga rasmiyatchilik bilan qaramaydi. Ishda yangi metodlarni dadillik bilan qidiradi va yaxshi natijalar bersa, shu metodlarni o'z ishida qo'llayveradi. O'qituvchi o'zidagi bunday ijobiy sifatlar tufayli bolalar oldida obro' qozonadi va ularni ham ijodkorlikka undaydi, katta tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Pedagog ixtisosligini tanlagan har bir inson kimlarni o'qitayotgan va tarbiyalayotganligi uchun o'ziga javobgarlikni oladi. U o'zining kasbiy tayyorgarligiga javob berish bilan birga pedagog, o'qituvchi, tarbiyachi, muallim bo'lish huquqiga ega bo'lishi uchun juda ko'plab majburiyatlarni olishi zarur. Muallimlik kasbining sharafliligi, nafaqat, uning o'qituvchi, turli bilimlarni o'rgatuvchi va mohir tarbiyachi bo'lganligi uchungina emas, balki uning o'zi tanlagan kasb-hunar yo'nalishidagi barcha mutaxassisliklar bo'yicha maxsus fanlarni va ularning poydevori bo'lgan fundamental fanlarni hamda o'qitish va tarbiya berishni, psixologiya va pedagogika asoslarini a'lo darajada egallagan bo'lishi shart. Shu bilan birga haqiqiy muallim turli darajadagi bilimga, xohish va irodaga hamda tarbiyaga ega bo'lgan talabalarni ajoyib san'atkor kabi o'ziga ergashtira olishi zarur. Bunday kasbiy pedagogik xususiyatga ega bo'lgan muallim o'ziga quyidagi majburiyatlarni olishi kerak. Birinchidan, bo'lajak o'qituvchi, tarbiyachi bo'lajak pedagoglik faoliyati uchun o'zining imkoniyatlarini baholashi, o'zining kuchli va kuchsiz tomonlarini bilishi, kasbiy pedagogik tayyorgarlik davrida qanday kasbiy zaruriy sifatleri shakllantirish kerakligini va qandaylarini mustaqil pedagogik jarayonda shakllantirishi kerak? Ikkinchidan, bo'lajak pedagog intellektual faoliyatining umumiy tomonlari (tafakkur, xotira, qabul qila olishi, ko'z oldiga keltirishi, e'tibor) ni xulq-atvor madaniyati va shu jumladan pedagogikaviy aloqasini egallagan bo'lishi shart. Uchinchidan, pedagog uchun majburiy dastlabki shart-sharoit muvaffaqiyatli faoliyat asosi bo'lgan o'quvchini o'zining tengquri deb qarashi va uning hulq-atvori o'zaro aloqasidagi qonun-qoidalarini bilishi kerak. Pedagog, o'quvchi va tarbiyalanuvchini, uning barcha xususiyatlaridan qat'i nazar, bilishi va qabul qilishi shart. To'rtinchidan, pedagog nafaqat talabalar o'qish faoliyatining tashkilotchisi va o'qish jarayonini tashkil etuvchilarning o'zaro aloqasini

ilhomlantiruvchi bo'lib hizmat qilish bilan birga ma'lum ma'noda bilim, tarbiya berish va demak, umumiy maqsadlarga erishishda ularning tengdoshi sifatida qatnashishi zarur. Bu esa talabalar oldiga doimo o'zlarining tashkilotchilik, kommunikativ xususiyatlarini pedagogik-psixologik bilimlarni o'zlashtirish jarayonida rivojlantirib borishlarini va ulardan pedagogikaviy amaliyotlardan samarali foydalanishga intilishlarini yuzaga keltiradi

Yuqorida ta'kidlangan vazifalarni amalga oshirish uchun, avallo, har bir o'qituvchi o'quv yili boshida bajaradigan ishlarini sarhisob qilishi va shaxsiy ish rejasini tuzishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Farberman B.L, Musina R.G, Jumaboeva F.A. Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning zamonaviy usullari. O'quv-uslubiy qo'llanma. T., 2002.
2. Podlaso'y I.P. Pedagogika M., Vlado, 2002.
3. Xaydarov B, Nuriddinov B, Rasulov A. va boshqalar. Ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. Treninglar uchun qo'llanma. T., O'MKXTRI, 2002.
4. Nishonov A, Xaydarov B, Nuriddinov B. va boshqalar. Baxolash metodlari. O'quv metodik qo'llanma. T., 2003.
5. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimining rahbar, pedagog va muxandis-pedagog kadrlari malakasini oshirishning ilmiy-metod. Muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari.